



UDK 78.031.4:78.071.2

Nodira PIRMATOVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti dotsenti, O‘zbekiston, Toshkent

E-mail: nodirapirmatova@mail.ru

O‘ZDSMI professori, O‘zbekiston xalq hofizi B.Do‘stmurodov taqrizi asosida

PROBLEMS OF DEVIATION FROM TRADITION IN THE PERFORMANCE OF MAQOM BY CONTEMPORARY SINGERS

Аннотация

This article examines the problem of deviation from traditional performance principles in contemporary maqom vocal practice. It highlights maqom as a complex system of orally transmitted musical tradition and analyzes transformations influenced by modern stage requirements and mass media. Particular attention is given to issues such as improper pronunciation of poetic texts according to the aruz meter, reduction of rhythmic and melodic development, simplification of musical structures, and the gradual loss of traditional ornamental elements.

Key words: Maqom vocal performance, traditional performance practice, contemporary interpretation, aruz meter, rhythm, melodic development, performance culture, maqom art.

ПРОБЛЕМЫ ОТКЛОНЕНИЯ ОТ ТРАДИЦИИ В ИСПОЛНЕНИИ МАҚОМ СОВРЕМЕННЫМИ ПЕВЦАМИ

Аннотация

В статье рассматривается проблема отклонения от традиционных исполнительских принципов в современном макомном пении. Освещаются особенности макама как сложной системы устно-традиционного музыкального исполнительства, а также анализируются изменения, возникающие под влиянием современных сценических требований и массовой культуры. Особое внимание уделяется таким явлениям, как несоблюдение арузного метра в произношении поэтического текста, сокращение ритмических и мелодических развертываний, упрощение мелодий и утрата традиционных исполнительских украшений.

Ключевые слова: Макомное пение, традиционное исполнительство, современное исполнение, аруз, ритм, мелодическое развитие, исполнительская культура, макам.

ZAMONAVIY XONANDALARNING MAQOM IJROSIDA AN‘ANADAN CHEKINISH MUAMMOLARI

Аннотация

Mazkur maqolada maqom xonandaligi an‘anaviy ijrochilik tamoyillaridan zamonaviy sharoitda chekinish muammosi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Maqom san‘atining tarixan og‘zaki-an‘anaviy asosda shakllangan murakkab ijrochilik tizimi sifatida o‘ziga xos xususiyatlari yoritilib, zamonaviy sahna talablari va ommaviy madaniyat ta‘sirida yuzaga kelayotgan o‘zgarishlar ko‘rib chiqiladi. Xususan, she‘riy matnning aruz vazniga mos talaffuz qilinmasligi, usul va ohang rivojining qisqartirilishi, kuylarning soddalashtirilishi hamda an‘anaviy bezak elementlarining yo‘qolib borishi kabi holatlar ilmiy muammo sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Maqom xonandaligi, an‘anaviy ijrochilik, zamonaviy ijro, aruz vazni, usul, ohang rivoji, ijrochilik madaniyati, maqom san‘ati.

Kirish. Maqom san‘ati o‘zbek musiqiy madaniyatining eng qadimiy va murakkab qatlamlaridan biri bo‘lib, u asrlar davomida shakllangan an‘anaviy ijro tamoyillari, uslubiy meyorlar va estetik qarashlarga tayanadi.

“Professional muzika xalq muzika materiallari bilangina boyib boradi, Bundan tashqari, maqomlarga aytiladigan she‘rlar klassik shoirlarning g‘azallaridan iborat ekanligi ham ularni ma‘lum doirada qola olmasligiga sabab bo‘ladi. Shuni xam aytish kerakki, maqomlarga ba‘zan diniy mazmundagi she‘r ham tushirib ijro etila bergan. Lekin, maqomlar o‘zining asl lirik xususiyatini bu bilan yo‘qotmaydi. Maqom kuy va ashula yo‘llarida o‘zbek-tojik xalk muzikasiga xos intonasiya, lad tuzumlari, melodik struktura, ritmik asosi (usullari) mujassamlangan”[1].

Maqom xonandaligi nafaqat kuy va ohangni ijro etish, balki she‘riy matn, talaffuz, usul, ohang rivoji va ichki badiiy mantiqni bir butun holda idrok etishni talab qiladigan murakkab ijrochilik tizimidir. Shu bois, maqom ijrosi an‘anaviylik va davomiylik tamoyillari asosida avloddan avlodga og‘zaki-amaliy yo‘l bilan yetkazib kelingan.

“Bir necha yillar mobanida Oliy ta‘lim muassasalari ichida O‘zbekiston davlat konservatoriyasida kafedra faoliyati ikki asosiy yo‘nalish – musiqiy sharqshunoslik va ijrochilik sohalarida ish olib borildi. Kafedraning ijrochilik faoliyatiga yetuk maqom ustozlari: Fahriddin Sodiqov, Rixsi Rajabiy, To‘ychi Inogamov, Maxmudjon Muxammedov, Turg‘un Alimatov, Berta Davidovalar jalb etildi”[2].

So‘nggi yillarda zamonaviy sahna talablari, ommaviy axborot vositalari, tezkorlik va tinglovchi didining o‘zgarishi natijasida maqom xonandaligida ayrim ijrochilik meyorlaridan chekinish holatlari kuzatilmog‘da. Bu jarayon, bir tomondan, ijrochilik erkinligi va individual uslub sifatida talqin etilsa, ikkinchi tomondan, maqomning an‘anaviy badiiy-estetik qiyofasining buzilishiga olib kelayotgan omil sifatida baholanmog‘da.

“Bu yo‘lda esa davlatimiz tomonidan barcha ehtiyojlar, qulayliklar yaratilgan. Poytaxtimizda Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati institutining ochilishi va unda milliy musiqa san‘atining ta‘limi yo‘lga qo‘yilganligi bunga misol bo‘la oladi. Kelajakda ushbu oliygohdan buyuk ajdodlarimiz kabi allomalar avlodlari chiqishidan umid qilib qolamiz”[3].

Ayniqsa, zamonaviy xonandalar ijrosida she‘riy matnning aruz vazniga mos talaffuz qilinmasligi, usul va ohang rivojining qisqartirilishi, kuylarning soddalashtirilishi, shuningdek, an‘anaviy bezak va xonish elementlarining yo‘qolib borishi kabi holatlar ilmiy tahlilni talab etuvchi muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu munosabat bilan ushbu mavzuda zamonaviy xonandalarning maqom ijrosida an‘anaviy ijrochilik tamoyillaridan chekinish sabablari, shakllari va oqibatlari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Zamonaviy xonandalarning maqom ijrosida an‘anadan chekinish muammolari masalasi musiqashunoslikda bevosita maxsus tadqiqot mavzusi sifatida kam yoritilgan bo‘lsa-da, mazkur muammo bilan bog‘liq ayrim nazariy va amaliy jihatlar bir qator

olimlar asarlarida bilvosita tarzda ko'rib chiqilgan. Ammo bu tadqiqotlarda maqom xonandaligi aniq misollar asosida chuqur tahlil qilinmagan.

“Shunga o'xshash holatlar qizlarda ham kuzatiladi, biroq o'g'il bolalardagidek darajada yaqqol namoyon bo'lmaydi. Mutatsiya davriga xos xususiyatlardan kelib chiqib, tomoqning tez o'sishi ovoz rivojlanishidagi nisbatan murakkab va xavfli bosqich sifatida baholanadi”[4].

Shu bilan birga, maqom xonandaligida she'riy matnning talaffuzi, aruz vazniga rioya etilishi va xonish madaniyatiga oid masalalar ayrim filologik va musiqashunoslik ishlarida yoritilgan bo'lsa-da, zamonaviy ijrochilarning an'anadan chekinish holatlari alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maqom san'atining nazariy asoslari va an'anaviy ijrochilik tamoyillari yetarlicha tadqiq etilgan bo'lsa-da, zamonaviy xonandalarning ijrosida yuzaga kelayotgan an'anadan chekinish muammolari kompleks, tizimli va amaliy tahlilni talab etuvchi dolzarb ilmiy masala sifatida qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda maqom san'atini ommalashtirish maqsadida davlat ommaviy axborot vositalari orqali turli loyihalar, konsert dasturlari va ijro namunalari keng namoyish etilmoqda.

“Maqomlarga bo'lgan qiziqishning faollashuvi o'z davrida hayot taqozosi edi. Zero, maqom umuminsoniy ahamiyatga moliy: san'at turi sifatida juda katta badiiy va ma'naviy qadriyatlarini mujassamlashtirganki, u hayotiy negizlardan yiroqlashib, tobora boshi berk ko'chaga kirib borayotgan zamonaviy g'arb musiqasiga najot berishga ham qodir edi. Shuning uchun bu san'atning turli ko'riishlarini astoydil o'zlashtirish kun tartibidagi eng dolzarb masalalardan biriga aylandi”[5].

Ushbu jarayonda taniqli maqomchi ustozlar, yirik ansambllar va rasmiy sahnalarda faoliyat yuritayotgan yetakchi sozanda hamda xonandalar ishtiroki kuzatiladi. Biroq mazkur targ'ibot jarayonlari bilan bir qatorda, maqom ijrochiligida an'anaviy qadriyatlarga zid bo'lgan ijro shakllarining ham tobora ko'payib borayotgani e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Xususan, ayrim rasmiy maqom jamoalari va obro'li ijrochilar repertuarida maqomning ichki badiiy-mantiqiy tuzilishiga mos kelmaydigan soddalashtirishlar, usul va ohang rivojining buzilishi, xonish va bezaklarning zamonaviy estrada estetikasi tomon og'dirilishi holatlari uchramoqda. Bunday ijrolar, tashqi tomondan, “zamonaviylashtirish” yoki “ommaboplik” niqobi ostida taqdim etilayotgan bo'lsa-da, aslida maqom san'atining eng nozik va muhim estetik qatlamlariga putur yetkazmoqda.

Alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda oliy musiqa ta'limi muassasalarida, jumladan, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutida talabalarga maqom ijrochiligida an'anaviy uslubga qat'iy rioya qilish, zamonaviy va maqom tabiatiga yot bo'lgan ijro shakllaridan voz kechish talabi qo'yilmoqda. Biroq amaliy sahna tajribasida, ayniqsa, rasmiy davlat maqom ijrochilari tomonidan ushbu tamoyillarning buzilishi kuzatilayotgani ta'lim va ijro o'rtasida jiddiy mantiqiy ziddiyatni yuzaga keltirmoqda.

Bu holat yosh ijrochilar ongida an'anaviylik mezonlari borasida chalkashliklar paydo bo'lishiga, “ruxsat etilgan” va “taqiqlangan” ijro shakllari chegarasining noaniqlashuviga olib kelmoqda. Natijada maqom ijrochiligining ilmiy-nazariy asoslari bilan sahna amaliyoti o'rtasida uzilish vujudga kelmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur jarayonni kengroq madaniy kontekstda baholaganda, bugungi global musiqiy makon

hukmron bo'lgan ommaviy estetik tamoyillar, tezkor iste'mol va soddalashtirilgan musiqiy tafakkur maqom san'atining murakkab, ichki mantiqqa asoslangan vazminlik va sabr talab qiluvchi tabiati bilan keskin qarama-qarshilikka kirishayotganini ko'ramiz. Global musiqiy inqiroz sharoitida aynan maqom san'atining eng nozik qatlamlari - talaffuz madaniyati, aruzga mos xonish, usulning ichki energiyasi va ohang rivoji kabi qadriyatlar eng avvalo zarar ko'rayotgan jihatlar bo'lib qolmoqda.

Shu bois, maqom san'atini targ'ib qilish jarayonida nafaqat miqdoriy ko'rsatkichlar, balki sifat mezonlari ham ustuvor bo'lishi lozim. Aks holda, an'anani asrash nomi ostida uning ichki mohiyatini yemirish xavfi yuzaga keladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy xonandalarning maqom ijrosida an'anaviy ijrochilik tamoyillaridan chekinish holatlari tizimli va murakkab xususiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayon nafaqat individual ijrochilik yondashuvlari bilan, balki ommaviy axborot vositalari, sahna talablari va global musiqiy makon ta'siri bilan bevosita bog'liqdir. Aniqlanishicha, maqom san'atini keng targ'ib qilish jarayonida ayrim rasmiy ijrochilar va yirik ansambllar tomonidan an'anaviy usul, ohang rivoji, xonish va she'riy matn talaffuzi kabi asosiy badiiy-meyoriy tamoyillardan chekinilmoqda. Bu holat maqom san'atining estetik yaxlitligi va tarixiy davomiyligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda.

Shuningdek, oliy musiqa ta'limi muassasalarida maqom ijrochiligining an'anaviy asoslarini saqlashga qaratilgan ilmiy-pedagogik talablar bilan amaliy sahna tajribasi o'rtasida muayyan nomuvofiqlik mavjudligi aniqlandi. Mazkur ziddiyat yosh ijrochilarning ijrochilik qarashlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, an'anaviylik mezonlarining noaniqlashuviga olib kelmoqda.

Tahlil va natijalar: Shundan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

Maqom san'atini targ'ib etuvchi davlat ommaviy axborot vositalarida namoyish etilayotgan ijrolarni ilmiy-maslahat kengashlari ishtirokida saralash va baholash tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Rasmiy maqom ansambllari va ijrochilar faoliyatida an'anaviy ijrochilik meyorlariga rioya etilishini ta'minlovchi uslubiy mezonlar ishlab chiqilishi lozim.

Kelgusida zamonaviy maqom ijrochiligi muammolarini kompleks, empirik va qiyosiy tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar. Mazkur xulosa va takliflar maqom san'atining an'anaviy qadriyatlarini asrash, ijrochilik madaniyatini ilmiy asosda rivojlantirish hamda zamonaviy musiqiy jarayonlarda uning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayon nafaqat individual ijrochilik yondashuvlari bilan, balki ommaviy axborot vositalari, sahna talablari va global musiqiy makon ta'siri bilan bevosita bog'liqdir.

Binobarin maqomlarning asrlar osha o'z badiiy qadr-u qiymatini yo'qotmasligi va ayni paytda, millionlab odamlar qalbidan o'rin olganligining asl sabablaridan biri ham ularning te'ran ma'nolarga yo'g'rilgan go'zal navolari-yu, be'qiyos shakl-u tamoiillari bilan izohlanadi. [6]

Aniqlanishicha, maqom san'atini keng targ'ib qilish jarayonida ayrim rasmiy ijrochilar va yirik ansambllar tomonidan an'anaviy usul, ohang rivoji, xonish va she'riy matn talaffuzi kabi asosiy badiiy-meyoriy tamoyillardan chekinilmoqda. Bu holat maqom san'atining estetik yaxlitligi va tarixiy davomiyligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda, shuningdek, yosh ijrochilar ongida an'anaviylik va “zamonaviy” ijro o'rtasidagi chegara noaniqligini yuzaga keltirmoqda.

ADABIYOTLAR

1. I.Rajabov “Maqomlar masalasiga doir” Toshkent-1963y.
2. I.Ganiyeva “Ta'lim tizimining mushtarak jarayonlari xususida //sharq xalqlari musiqa madaniyati: globallashtirish jarayonlarida ijodiy uyg'unlashuv tamoyillari”. – c. 138.
3. Zufarov A. O'zbek milliy musiqasi rivojida sharq allomalarining qo'shgan hissasi //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 244-250.
4. Pirmatova N. et al. The influence of national music on the spiritual development of youth //International Congress on Economics, Management and Business Studies. – 2026. – T. 1. – №. 2. – C. 171-175.

5. O.Matyakubov. Maqomot. – Toshkent, 2004
6. Pirmatova N. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 12. – C. 1294-1296.
7. Rasulov, U. U. (2024). Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida maqom san‘atining tutgan o‘rni. *Inter Education & Global Study*, 4, 403–411.
8. Karimova, M. (2025). Shashmaqom Cholg‘u qismlarining ijrochiligi. *Modern Science and Research*, 4(3), 1002–1008. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science_research/article/view/73284
7. Yuldashev, M. U. (2025). Sharq musiqa madaniyatining pedagogikasi va uning yoshlar tafakkurida aks etishi. *Zenodo*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15389746>
9. Ulmasovich, R. U. (2025). O‘zbek mumtozmusiqasi merosining milliy va umumbashariy qadryatlari. *France-Scientific Review of the Problems and Prospects of Modern Science and Education*, 1(3), 8–13
10. Salixova Muhabbat Abdujabbarovna. (2025). Xalqimiz va uning namoyandalari yaratgan ma'naviy boyliklarimiz butun o'zbek xalqi madaniy merosi, qadriyatlarining tarkibiy qismi. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15395451>
11. Theoretical aspects of traditional uzbek vocal art. (2025). *World Bulletin of Education and Learning*, 1(02), 409-413. <https://worldbulletin.org/index.php/1/article/view/124>